KIMYO SANOAT KORXONALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH DOIRASIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI XODIMLARI ISHTIROKIDA SEMINAR O‘TKAZILDI

// 28.03.2022
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-seminar



Joriy yilning 25 mart kuni "O‘zkimyosanoat" AJ va tizim korxonalari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tushuntirish ishlarini olib borish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xodimlari ishtirokida seminar o‘tkazildi.

Ushbu tadbirda "O‘zkimyosanoat" AJ boshqarma va bo‘limlarining xodimlari, tizimdagi ishlab chiqaruvchi korxonalar rahbarlari, komplayens xizmati xodimlari va O‘zbekiston Respbulikasi Bosh prokuratura boshqarma katta prokurorlari Karimjon Musashayxov va Ravshan Nurbekovlar ishtirok etishdi.



Seminar davomida K. Musashayxov O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik, ularning o‘z vaqtida oldini olish, aniqlash va ularga chek qo‘yilishini ta’minlash hamda oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar xususida batafsil to‘xtalib o‘tdi.

Shuningdek, ma’ruzachi K. Musashayxov tomonidan korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik, shu jumladan, jinoiy, ma’muriy va intizomiy javobgarliklar hamda jazo turlari to‘g‘risida ma’lumot berib, davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkinligi ta’kidlandi.



Bundan tashqari, 2020 va 2021 yilllar kesimida jinoiy, ma’muriy va intizomiy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun jazo choralari va javobgarlikka tortilgan shaxslar soni, jinoyatlar turlari tahlili seminar ishtirokchilariga yetkazildi.

Mazkur yo‘nalishda Bosh prokuratura boshqarma katta prokurori R. Nurbekov ma’ruzani davom ettirib, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakillantirish maqsadida ularning huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish maqsadga muvofiqligi ta’kidlab o‘tdi.

R. Nurbekov har bir fuqaro jamiyatda mavjud korrupsion xavf-xatarlarni bartaraf etish yo‘lida faol bo‘lishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslar mukofotlanishi bilan birga ular davlat himoyasiga olinishi Qonunchilik asosida kafolatlanganligiga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Seminar davomida Bosh prokuratura 2020 yildan boshlab 26 ta vazirlik va idoralarda "komplayens-nazorat" tizimini joriy etishda bevosita ishtirok etayotganligi, natijada o‘tgan qisqa vaqt ichida mazkur tashkilotlar bir qator samarali natijalarga erishilganligi qayd etildi.

Tadbir yakunida seminar ishtirokchilari bilan o‘zaro savol-javoblar o‘tkazildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati